

## TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARI BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xakimova Iroda Xayrullaevna**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti. Pedagogika fakulteti.*

*Maktab menejmenti kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Boshqaruv boshqariladigan obyektidagi jarayonlarning aniq maqsadga qaratilganligini va uyushganligini ta'minlashi lozim. Boshqaruv o'zining bu vazifasini bo'lishi kerak bo'lgan narsaning qiyofasini (maqsadlar va ularga erishish rejalarini) shakllantirish; ijrochilar o'rtasida vazifalar va vakolatlarni taqsimlash (rasmiy tuzilmani yaratish va saqlab turish); ijrochilarning samarali mehnatdan manfaatdorligini ta'minlovchi sharoit yaratish (rag'batlantirish); jamoada umumiy qadriyatlar va qulay munosabatlarni shakllantirish (norasmiy tuzilma yaratish va saqlab turish); ishning borishini nazorat qilish kabi va boshqa maxsus boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali amalga oshiradi.*

**Kalit so'zlar:** *boshqaruv, rahbar, maqsad, tuzulma, qadriyat, talablar, ta'lim.*

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Respublikamizda 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish" kontseptsiyasini ishlab chiqildi. Kontsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi<sup>28</sup>.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining boshqaruv madaniyati takomillashtirishning konseptual masalalari bo'yicha Abu Rayxon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu ali Ibn Sino va boshqa mutaffakur allomalar hamda MDH olimlaridan N.V.Vasina, A.A.Verbiskiy, V.Yu.Krichevskiy, Ye.I.Isaev, I.Zimnyaya, S.A.Yezopova, Ye.Kudryavseva, D.A.Novikova, V.Slastenin, xorijiy olimlardan M.Schnitger, G.Yukl, E.S.Simbirsk, Yu.B.Suvorova, E.Rogers, A.Maslow, W.Hutmacher, F.Herzberg, M.Glozier, D.Bartramlar tomonidan o'rganilgan. O'rganish natijalarida nazariy va amaliy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish va uni ilmiy asoslash hamda maxsus tadqiq etish zaruratining saqlanib qolayotganligi, bu yo'nalishda chuqur ilmiy-amaliy yondashuvlar, yangi bilim, malaka va ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj yuzaga kelganligi tadqiqot mavzusini dolzarbligini belgilaydi.

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.

## **MUHOKAMA**

Yurtimizda tobora yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar natijasida, jumladan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasida "...maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish"<sup>29</sup> kabi yo'nalishlar belgilangan. Boshqaruv jarayonida, ayni paytda, turli boshqaruv turkumlari ishi amalga oshiriladi. Kimdir mashg'ulotlar jadvaliga tuzatishlar kiritishi, kimdir o'qituvchining ishini nazorat qilib borishi, yana kimdir pedagogika kengashining ish rejasini muhokama qilishi mumkin;

Bu boshqaruv turkumlarini nafaqat bexabar kuzatuvchi uchun, balki aksariyat boshqaruv sub'ektlari uchun ham nooshkor holga keltiradi. Ammo boshqaruv faoliyatining yaxlitligi uchun javob beruvchi ta'lim tashkiloti rahbari ushbu turkumlarni tuzib, ularning har birini kuzatib borishi kerak. Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish hokimiyat munosabatlarini amalga oshirishi tufayli boshqaruv ishi deb hisoblanadi.

Boshqaruv jarayonida, ayni paytda, turli boshqaruv turkumlari ishi amalga oshiriladi. Kimdir mashg'ulotlar jadvaliga tuzatishlar kiritishi, kimdir o'qituvchining ishini nazorat qilib borishi, yana kimdir pedagogika kengashining ish rejasini muhokama qilishi mumkin. Bu boshqaruv turkumlarini nafaqat bexabar kuzatuvchi uchun, balki aksariyat boshqaruv sub'ektlari uchun ham nooshkor holga keltiradi. Ammo boshqaruv faoliyatining yaxlitligi uchun javob beruvchi ta'lim tashkiloti rahbari ushbu turkumlarni tuzib, ularning har birini kuzatib borishi kerak.

## **NATIJA**

Unumdorlikdan ko'pincha boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Garchi faoliyat unumdorligi bilan boshqaruv samaradorligi bir-biriga bog liqligi shubhasiz bo'lsa-da, biroq ular bitta narsa emas. Ta'limning boshqa ta'lim tashkilotiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta'lim tashkilotida boshqaruv sifati yuqori bo'lishidan har doim ham dalolat beravermaydi.

Masalan, ta'lim tashkiloti ajoyib moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim tashkilotlaridagiga nisbatan yuqoriroq ish haqi to'lay olsa, ushbu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lim tashkilotidagiga qaraganda ta'lim sifati yuqoriroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin masala har bir ta'lim tashkiloti o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog'li yaxshi foydalanayotganligidadir.

Boshqaruv sifatini baholash aynan shu savolga beriladigan javobga bo'liq. Boshqaruv o'z vazifasiga ko'ra foydali natija olish uchun imkoniyatlardan to'liq

---

<sup>29</sup> Афанасев В.Г. Человек: общество, управление, информация: Опыт системного подхода// URSS. 2013. 208 с. ISBN 978-5-397-03824-9

foydalanishni ta'minlashi kerak. Ushbu vazifani qanchalik yaxshi uddalasa, u shunchalik samarador bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan yemas, balki tahsil oluvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda.

Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida keltirilgan bosh g'oya, ya'ni: "... faqat ilm va bilimlar jamiyatni rivojlantirishi, davlatni taraqqiy ettira olishi mumkinligi"<sup>30</sup>, to'g'risidagi g'oyasiga monand ravishda sifatli ta'lim boshqaruvini amalda joriy etish talab etiladi. Demak, bugungi kunda jahon andozalariga tenglashtirilgan ta'lim sifat tizimi asosida mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda pedagogdan ta'lim berishda yuksak mahorat talab etiladi.

Boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo'lgan unumdorlik o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunamiz.

Bunday ta'rifni faoliyat ko'rsatishni boshqarishga nisbatan ham, rivojlanishni boshqarishga nisbatan ham ishlatsa bo'ladi. Lekin bu holatlarning har birida turli natijalar va turli xarajatlar hisobga olinishi kerak. Ta'lim tashkiloti o'zi uchun ta'lim sifati iloji boricha yuqori darajada bo'lishini ta'minlay oladi (bu yuqori samaradorlik hamda faoliyat yuritishni boshqarishdan dalolat berishi mumkin), ammo ayni paytda u yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining salohiyatini kuchaytirish uchun ob'ektiv tarzda ta'limning mavjud imkoniyatlaridan foydalanmasligi mumkin. Bu ta'lim tashkilotini rivojlantirishni boshqarish samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

Ta'lim sifati ta'lim oluvchi yoshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatining turli jihatlarini, o'qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va h. k. tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig'indisi bilan belgilanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, boshqaruv faoliyati deganda maktabgacha ta'limni takomillashtirishga va rahbar shaxsini ijodiy o'z-o'zini anglashga qaratilgan tashkiliy, loyihalash, baholash, muvofiqlashtirish va boshqarish funksiyalarida namoyon bo'ladigan ta'lim sub'ektlari faoliyatini tizimli va ijodiy tartibga solish jarayoni tushuniladi. Boshqaruv faoliyatiga doir masalalar xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida o'rganib chiqildi. Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti o'zaro hurmat, hamkorlik, ishonch, javobgarlik, kompetentlik, teskari aloqalar, o'zini-o'zi takomillashtirish tamoyillarida to'liq aks etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.

<sup>30</sup> Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: O'qituvchi, 1998.-43-bet.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.

3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -Toshkent: O'qituvchi, 1998.-43-bet.

4.Аверкин В.Н. Антиномический принцип персонифицированной организации повышения квалификации педагогов / В.Н. Аверкин, Т.А.Каплунович // Человек и образование. – 2014. - №3 (40). – С. 34 – 39.

5.Авилова Е.А. Влияние педагогии на становление и развитие дошкольного воспитания в 20-30-е гг // Управление ДОУ. – Москва, 2007.- №8, с.110